

MADANIY MEROS OBYEKTALARI ASOSIDA IQTISODIY RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

Xushvaqto'v Ramziddin

Qarshi davlat universiteti talabasi

e-mail: xushvaqto'vramziddin498@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-0564-5067>

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy meros obyektlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini va ahamiyati tahlil qilingan va madaniy meros obyektlari orqali turizm salohiyatini oshirish, mahalliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish, hamda yangi ish o'rinlarini yaratish kabi iqtisodiy foydalarni ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada madaniy meros asosida iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqish yo'nalishlari — restavratsiya, raqamlashtirish, hududiy klasterlar va marketing strategiyalari — yoritilgan. O'zbekiston, xususan Qashqadaryo viloyati misolida mavjud muammolar va ularga yechim takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar Madaniy meros, turizm, iqtisodiy rivojlanish, turizm strategiyalari, investitsiyalar, madaniy meros ob'ektlari, hududiy rivojlanish, turizm resurslari, raqamli texnologiyalar, komparativ tahlil.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение объектов культурного наследия в экономическом развитии, а также показаны экономические выгоды, такие как повышение туристического потенциала, привлечение инвестиций в местную экономику и создание новых рабочих мест через объекты культурного наследия. В статье также рассматриваются направления разработки экономических стратегий на основе культурного наследия — реставрация, цифровизация, региональные кластеры и маркетинговые стратегии. На примере Узбекистана, в частности, Кашкадарьинской области, приведены существующие проблемы и предложены пути их решения.

Ключевые слова: Культурное наследие, туризм, экономическое развитие, туристические стратегии, инвестиции, объекты культурного наследия, региональное развитие, туристические ресурсы, цифровые технологии, сравнительный анализ.

Annotation: This article analyzes the role and significance of cultural heritage sites in economic development and demonstrates the economic benefits, such as enhancing tourism potential, attracting investments to the local economy, and creating new jobs through cultural heritage sites. The article also discusses directions for developing economic strategies based on cultural heritage — restoration, digitalization, regional clusters, and marketing strategies. Using Uzbekistan,

particularly the Kashkadarya region, as an example, existing problems are outlined and solutions are proposed.

Keywords: Cultural heritage, tourism, economic development, tourism strategies, investments, cultural heritage sites, regional development, tourism resources, digital technologies, comparative analysis.

KIRISH

Rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri — mavjud resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilishdir. So'nggi yillarda O'zbekistonda madaniy meros obyektlaridan iqtisodiy vosita sifatida foydalanish, ularni turizm industriyasiga integratsiya qilish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va hududiy investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son farmonida madaniy meros obyektlarini iqtisodiy aylanishga jalb qilish, turizm klasterlarini shakllantirish va ularning monetizatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish belgilandi. Ushbu hujjatda davlat-xususiy sheriklik asosida tarixiy obyektlarni saqlash, ularga raqamli texnologiyalarni joriy qilish va xizmatlar tarmog'ini kengaytirish orqali hududiy iqtisodiyotni rag'batlantirishga alohida urg'u berilgan[1]. Mazkur maqolada aynan shu yo'nalishda madaniy meros obyektlari asosida iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, ularning amaliy natijadorligi va istiqbollari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Madaniy turizm iqtisodiy taraqqiyot, mahalliy jamoalarning barqaror rivojlanishi va madaniy merosni asrab-avaylashda muhim omil sifatida tobora keng e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda bu yo'nalishning o'sib borayotgan ahamiyati turli yondashuvlar orqali ochib berilmoqda. D'Anieri (2018) o'z tadqiqotida Ipak yo'lining tarixiy ahamiyati, xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarning xalqaro madaniy almashinuv markazlari sifatida o'rni haqida so'z yuritadi. U Ipak yo'lining Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va diplomatik ko'priki sifatidagi tarixiy rolini alohida ta'kidlaydi [2].

Mazkur tadqiqotlarni Qashqadaryo kontekstida tahlil qilar ekanmiz, viloyatning qadimiy Kitob, Qarshi, Shahrisabz kabi shaharlari ham Ipak yo'lining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib xizmat qilganini eslatib o'tish muhimdir. Shahrisabz shahri Amir Temurning tug'ilgan va tarixiy-political jihatdan yetakchi bo'lgan maskan sifatida alohida o'ringa ega. Alimov va Hojiyev (2020) Shahrisabzdagi tarixiy obidalarni – Oqsaroy, Dorut Tilovat, Dorus Saodat majmualari ya'ni YUNESKO ro'yxatidagi – madaniy turizmning iqtisodiy potensialini rivojlantirishdagi asosiy resurs sifatida ko'rib chiqadi va infratuzilmasini yaxshilash va mintaqaviy turizmni

rivojlantirishga qaratilgan dasturlarnin amalga oshiradi. [3]. Yuldoshev (2021) esa O‘zbekistonda, jumladan, an’anaviy hunarmandchilik va pazandachilikni madaniy turizm bilan integratsiyalash orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, shoyi to‘qish, kulolchilik va milliy taomlarni tayyorlash kabi faoliyatlar xorijiy sayyohlarni jalb etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [4].

Whitmore (2015)ning fikricha, tarixiy meros ob’ektlari atrofida barqaror urbanistik rivojlanish siyosatini yuritish madaniy turizmni uzoq muddatli iqtisodiy manba sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv Qashqadaryo viloyatida Shahrisabz va Qarshi shaharlari misolida tadbqiq etilishi mumkin [5]. Bundan tashqari, UNWTO (2020) hisobotida O‘zbekiston, xususan, mintaqaviy turizm destinatsiyalari sifatida transport va infratuzilma bo‘yicha ayrim muammolarga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu xulosa Qashqadaryoning turizm salohiyatini to‘liq ochishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega [6]. Natijaviy jihatdan, turizmni rivojlantirish uchun zamonaviy infratuzilmalarni barpo etish, tarixiy obidalarni rekonstruksiya qilish va mahalliy aholining turizm xizmatlari sohasidagi malakasini oshirish Qashqadaryo viloyati uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, YuNESKO mezonlariga javob beradigan obidalarni xalqaro miqyosda tanitish va ulardan iqtisodiy foydalanish siyosatini yo‘lga qo‘yish muhimdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda madaniy meros obyektlari asosida turizmni rivojlantirishning iqtisodiy salohiyatini o‘rganish uchun tahliliy metod qo‘llanildi. Madaniy meros ob’ektlari va turizmning iqtisodiy ta’siri tahlil qilindi, raqamli va statistik ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Shuningdek, turizm sohasidagi mutaxassislar va turistlar bilan o‘tkazilgan so‘rovlar natijasida tavsiyalar ishlab chiqildi. Komparativ tahlil yordamida O‘zbekiston va boshqa mamlakatlardagi muvaffaqiyatli tajribalar taqqoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniy meros obyektlarini iqtisodiy resurs sifatida baholash global amaliyotda keng tarqalgan yondashuv bo‘lib, u nafaqat turizm sohasini, balki ko‘plab boshqa tarmoqlarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Jahon tajribasida, masalan, Italiya, Gretsiya yoki Turkiya kabi mamlakatlarda tarixiy yodgorliklar asosida shakllangan turizm infratuzilmasi yillik yalpi ichki mahsulotga 10–15 foizgacha hissa qo‘shmoqda. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 2023-yil yakunlariga ko‘ra 2,8% atrofida bo‘lgan. Demak, mavjud imkoniyatlar hali to‘liq ishga solinmagan va bu yo‘nalishda samarali iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqish zarurati mavjud. Ayni paytda mamlakatimizda 8 mingdan ortiq ro‘yxatga olingan moddiy madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shulardan 745 tasi respublika ahamiyatidagi tarixiy yodgorliklar sifatida tan olingan. Bular orasida Shahrisabzdagi Amir Temur maqbarasi, Qarshi arki, Kitobdagi qadimiy obidalar alohida o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, ko‘plab hududlarda ushbu obyektlar iqtisodiy aylanishga kiritilmagan, ular

atrofida xizmatlar bozori yetarlicha shakllanmagan, yoki infratuzilma imkoniyatlari sust rivojlangan. Ammo ushbu masalalarga yechim berish borasida muhtaram Prezidentimizning farmonlarida turizm va madaniy merosni rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuvlar taklif qilingan. Jumladan, madaniy meros obyektlari negizida tematik turizm klasterlarini yaratish, investitsiya jalb qilish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy infratuzilmaga ega turizm zonalarini shakllantirish, hamda davlat-xususiy sheriklik asosida obyektlarni saqlash va monetizatsiya qilish choralari ko'rish vazifasi belgilandi. Ushbu yondashuvlar bir vaqtning o'zida madaniy merosni saqlab qolish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda 2021–2024-yillar davomida O'zbekistonga tashrif buyurgan chet elik turistlar soni va o'sish sur'atlari keltirilgan (1-jadval)

Yil	Chet el fuqorolari soni(mln)	O'sish sur'ati
2021	1,88	-
2022	5,2	+176,6
2023	6,6	+26,9
2024	8,2	+24,2

Jadval 1. O'zbekiston Respublikasiga chet el fuqorolarining turistik tashriflari (2021–2024 yillar)¹

Ushbu raqamlar ko'rsatadiki, madaniy turizm sohasidagi faoliyat ham yildan-yilga o'smoqda, lekin bu o'sish hali ham mavjud salohiyatning to'liq ishga tushirilganini anglatmaydi. Ayniqsa, qishloq va tog'li hududlardagi tarixiy yodgorliklar, qadimiy ibodatxonalar va arxeologik obyektlar asosida kichik biznes, hunarmandchilik va xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali mahalliy aholi daromadini oshirish mumkin. Qashqadaryo viloyatini misol qilib olsak, bu hududda 350 dan ortiq ro'yxatga olingan tarixiy yodgorliklar mavjud. Ulardan atigi 15–20 foizi turizm maqsadida foydalanilmoqda. Ko'p hollarda muammo obyektlarning restavratsiya qilinmagani, infratuzilmaning yetishmasligi yoki marketing strategiyasining yo'qligidir. Ammo bu hududda ekoturizm, agroturizm va etnoturizm kabi tarmoqlarni madaniy turizm bilan uyg'unlashtirish orqali turizmning diversifikatsiyasiga erishish mumkin.

Davlat tomonidan madaniy obyektlarni raqamlashtirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, 1 200 dan ortiq obyekt 3D modellashtirish orqali elektron reyestrda kiritilgan. Bu esa ularning ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanilishini osonlashtiradi, turizmga innovatsion yondashuvlarga

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi

yo‘l ochadi. Masalan, QR-kodli gidlik tizimi, virtual sayohatlar va raqamli interaktiv xizmatlar orqali xorijiy turistlarni jalb qilish imkoniyati ortmoqda. Madaniy meros obyektlari atrofida xizmatlar klasterini yaratish, ayniqsa, mahalliy aholi ishtirokini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Hunarmandlar, milliy taomlar tayyorlovchilari, mahalliy gidlar va turistik mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun zarur sharoitlar yaratilsa, bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, balki iqtisodiy tengsizlikni ham kamaytiradi. Xalqaro tajribalarda bu model "inclusive tourism" (inklyuziv turizm) deb nomlanadi.

Natijalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, O‘zbekistonda madaniy meros obyektlari asosida iqtisodiy rivojlanish uchun zarur huquqiy asoslar, siyosiy irodalar va mavjud salohiyat mavjud. Endilikda asosiy vazifa — mavjud strategiyalarni hududlar kesimida izchil amalga oshirish, mahalliy iqtisodiy tizimlarga integratsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishdir. Ayniqsa, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlarida tarixiy yodgorliklar negizida iqtisodiy faoliyatni faollashtirish orqali YIM tarkibida turizm ulushini 5–6 foizga yetkazish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston hududlarida mavjud madaniy meros obyektlari turizm sohasining strategik resursi bo‘lib, ularning iqtisodiy salohiyati hali to‘liq ro‘yobga chiqarilmagan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, madaniy obyektlar atrofida yetarli infratuzilma yaratilmagani, xizmatlar ko‘lami va investitsion faoliyatning pastligi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Madaniy merosga asoslangan turizmni rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularni iqtisodiy aylanishga kiritish, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish va mahalliy aholining ishtirokini ta‘minlash muhim. Bunday yondashuv hududiy iqtisodiyotda ko‘p tarmoqli o‘sish, bandlikning oshishi va ijtimoiy faollikning kuchayishiga olib keladi. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

— Turizm klasterlarini shakllantirish. Madaniy meros obyektlari markazida joylashgan turizm zonalarida xizmatlar zanjirini yaratish, shu jumladan, mehmonxonalar, restoranlar, savdo va ko‘ngilochar maskanlarni rivojlantirish orqali iqtisodiy faollik oshiriladi.

— Raqamlashtirishni jadallashtirish. Madaniy obidalarini 3D modellashtirish, virtual gidlik xizmatlari va mobil ilovalar orqali turistlar uchun qulay axborot tizimlarini yaratish kerak.

— Marketing strategiyalarini kuchaytirish. Har bir tarixiy hudud yoki obidani o‘ziga xos brendga aylantirib, xalqaro va mahalliy bozorlarda faol reklama kampaniyalarini olib borish zarur.

— Mahalliy aholining ishtirokini rag‘batlantirish. Turizm xizmatlarida yoshlar va ayollarni jalb qilish orqali mikrobizneslarni rivojlantirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish mumkin.

— Ilmiy va rejalashtirilgan yondashuvlar. Turizm infratuzilmasini barpo etishda tarixiy obidalar saqlanish holati, ekologik va madaniy xususiyatlar asosida reja ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, madaniy meros obyektlari asosida turizmni rivojlantirish O‘zbekistonda nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki hududiy tengsizlikni kamaytirish, mahalliy aholi turmush darajasini oshirish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda puxta rejalashtirish, innovatsion yondashuvlar va mahalliy resurslardan to‘liq foydalanish muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son Farmoni
2. D'Anieri, P. (2018). Uzbekistan’s cultural heritage and tourism development: Opportunities and challenges. *Eurasian Geography and Economics*, 59(6), 815-836
3. Alimov, S., & Hojiev, S. (2020). Tourism development in Uzbekistan: Challenges and opportunities. *Journal of Central Asian Studies*, 7(2), 45-58
4. Yuldashev, T. (2021). The potential for local craft industries to benefit from cultural tourism in Uzbekistan. *Journal of Tourism Economics and Development*, 6(1), 98-112 9.
5. Whitmore, E. (2015). Heritage and urban development in Central Asia: Khiva as a model for sustainable cultural tourism. *Asian Urban Studies Journal*, 22(4), 121-135
6. UNWTO (2020). Tourism development in Central Asia: The potential of cultural tourism in Uzbekistan. United Nations World Tourism Organization.
7. Omonjon, U. (2024). Ilmiy turizm va uning Yevropa davlatlarida rivojlanishi. *KokandUniversity Research Base*, 940-943
8. O‘zbekiston milliy atlas. II-jild. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2010. – 224 b.
9. Ro‘ziyev, B., & Xushvaqtov, R. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA SAFARI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 2(6), 145-149.
10. Vayskulov, R., & Xushvaqtov, R. (2024). O ‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O ‘RNI. *YANGI O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).